

Ayrim iste'mol tovarlariga nisbatat bojxona to'lovlari bekor qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 23-martdagi "Iste'mol bozorlarida narxlar barqarorligini ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-41-son Farmoniga asosan, aholining xarid qobiliyatini mustahkamlash, asosiy turdagi oziq-ovqat va iste'mol mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojni ta'minlash maqsadida 2025-yil 1-yanvargacha ayrim tovarlarni, jumladan, quyidagilarni O'zbekistonga olib kirishda bojxona bojining nol stavkasi qo'llaniladi.

- yogurt;
- paxta, ivigan sut yoki qaymoq, qatiq;
- pishloq va tvoroglar;
- yangi yoki quritilgan xurmo (finik), anjir, ananas, avokado, guava, mango va mangostin yoki garsiniya;
- yangi olma, nok va behi;
- bug'doy yoki javdardan tashqari g'alla donidan un;
- kakao tarkibli shokolad va boshqa tayyor oziq-ovqat mahsulotlari.

**Muallif: Fuqarolik ishlari bo'yicha
Termiz tumanlararo sudining raisi**

G'.Xidirov